

SOMONIYLAR DAVRIDA XALQARO SAVDO-SOTIQ MUNOSABATLARI

Bo'ronova Farida Ikrom qizi

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti

Tarix.Buxoro tarixi yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Jumayeva N A

Annotasiya: *Ushbu maqolada Somoniylar davridagi Xalqaro munosabatlar ya'ni qo'shni mamlakatlar bilan qay darajada savdo-sotiq qilishini yoritib berildi.*

Savdo-sotiq mamlakatlarning rivojlanishiga, ulardagi madaniy hayotning yaxshilanishiga va aholi turmush tarziga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri sanaladi. Aynan men o'rganayotgan Somoniylar davlatida savdo-sotiq mamlakatning ajralmas sohasi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Aynan nega Somoniylarning savdo-sotiq sohasi muhim degan savol bo'lishi tabiiy albatta, chunki Somoniylardan avval ulardan ham yuksak bo'lgan Sog'd savdogarlari bo'lganku. Somoniylarning ulardan ajralib turishiga sabab birinchi davlatda, Somoniylar musulmon davlatidir. Savdogarlar islom dini qoidalariga asoslanib savdo-sotiq qilishgan. Bu esa chet ellik savdogarlarda musulmon savdogarlarga nisbatan ishonch hissini oshirar edi. Ayniqsa islom madaniyatining adabiyot, san'at, fan, falsafa kabi turlari savdo yo'llarida savdogarlar, elchilar va sayyohlar bilan birgalikda qo'shni hududlarga ham boradi. Bevosita u hududlardan ham madaniyatlar kirib keladi. Bu esa madaniyatlar aralashuvini keltirib chiqaradi. Aynan mana shunday murakkab tizimga ega bo'lgan savdo yo'llaridan biri bu Buyuk Ipak yo'lidir. Bu yo'lning bir tarmog'i Somoniylar davlaidan o'tgan. Shu tufayli Somoniylarning shaharlari o'sib rivojlana boradi. Bu shaharlardan eng muhumlaridan biri sanaladigani Samarqand shahri edi. Somoniylar davrida Samarqand asta-sekin Markaziy Osiyoning madaniyat markaziga aylanadi. Bu savdo aloqalari Arablar bosqinidan so'ng ham to'xtamagan. Ammo ozod samarqandliklar doimo o'zlarining ustidan boshqa xalq hukmron bo'lishiga qarshi ozodlik harakatlari olib borishgan. Bundan Xalifalik ham chetda qolmaydi. Shunday ozodlik harakatlari tufayli Somoniylar davlatining tashkil topishi bilan tugallandi. Samarqand dastlab bu davlatning poytaxti bo'lib turdi, so'ngra IX asrning oxiridan boshlab, Ismoil Somoniy hukmronlik qilgan davrda poytaxt Buxoroga ko'chirildi. Biroq o'sha vaqtda ham Samarqand Buxoro bilan bir qatorda Movorounnahrning iqtisodiy va madaniy markazi bo'lib qolgan.

Somoniylar davrida Movarounnahrning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy hamkorligi rivojlandi. Somoniy podshohlar xorij bilan munosabatlarga alohida etibor berdilar. Muqobil tinchlik va qonuniy tartib-intizomning o'rnatilishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti taraqqiy qilgan edi. Somoniylar davrida Movarounnahr territoriyasidan ko'plab yer osti foydali qazilma konlari ochildi. Sharqshunos olim V.V.Bartold ma'lumoticha temir va ko'mir konlari ochilgan. Ayniqsa, Mink va

Maroqanddagi metal konlari mashhur bo'lib. u yerdan qazib olingan xom ashyoning bir qismi o'sha joyda ishlanib. qolgani esa Xuroson va Bog'dodda chiqarilgan. Metalga ishlov berishning murakkab usullarini o'rganib olgan yurtdoshlarimiz qilich, qalqon, dubulg'a, dudama, nayza singari jang qurollarini ko'plab xorijga chiqarar edi. Xorijiy ellarda Samarqand, Buxoro, Marvda ishlangan oltin va kumush tangalar qadrlanib, savdo- sotiqda valyuta rolini o'ynagan. Sharqiy Yevropadagi Kiyev Rossiya davlatining Novgorod. Pskov shaharlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida samoniylar davri tangalari topildi. Bu ikki davlat ortasida qizg'in savdo-sotiq bo'lganligidan dalolat berib turibdi.

Termizda sovun, talas, echki juni chiqarilgan. Samarqandning Vodar qishlog'idan chiqadigan "vadariy" matosi xorijiy savdo-sotiqda muhim o'rin egallagan. Maqdisiyning yozishicha vadoriy matosini Bog'dod hokimi Xuroson kimxobiga tenglashtirgan. Buxoroda to'qiladigan "zandaniy" va Samarqandning vodariy matolari shuhrati Yevropagacha yoyilgan edi.

Somoniylar faqat uzoqdagi mamlakatlar bilan savdo-sotiq qilasdan o'z qo'shnisi Xorazmshohlar bilan ham savdo aloqalari kuchli bo'lgan. Xorazmshohlar davlatidan o'zga portlarga gilam, movut, qoqilar. meva, kimxob, qulf, baliq kabilar olib borilgan. Xorazm Movarounnahr shaharlari va butun Sharqda rus davlati va Ovrupa mollarini o'tkarishdagi vosita bo'lgan. Chunki Xorazm hududida ikki muhim suv havzasi – Orol va Kaspiy dengizlari bore di. Bu esa mahsulotlarni tashishni ancha osonlashtirar edi. O'sha davrlarda Zarafshonning mush killing shuhrati keng tarqalgan edi. Xorijiy mamlakatlarda tibet mushki, undan keyin esa Zarafshon mushki ko'proq qadrlangan. Hatto Xitoy mushki ham sifat jihatidan Zarafshon mushkidan keyingi o'rinda turgan. Ya'ni Zarafshon mushki o'zining ajabtovur xushbo'yligi bilan ajralib turgan. Somoniylar davrida xorijiy ellarga savdo karvonlari yuborib turilardi. Tarixchi Gardiziyning malumoticha Orol dengizi bo'ylab pecheneg va bulg'orlar yurtiga o'nlab savdo karvonlari borgan. Xalifa Muqtadirning ibn Fadlon boshchiligidagi 3 ming tuya yuk va 5 ming kishidan iborat savdo-elchilik karvoni ham Bulg'or davlatiga o'sha davrda yuborilgan edi. Somoniylar davrida musulmonlaming birinchi savdo karvoni Mo'g'ilistonga borgan. Ularni mo'g'ullar xuddi elchidek kutib olib, izzat-hurmat ko'rsatishgan. Somoniylar Hazar, Eron, Bulg'or, Xitoy, Rus bilan keng ko'lamda savdo-sotiq qilgan. Somoniylar davrida Buxoro Sharqda Islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylangan. Bu yerda ko'plab madrasa, masjid va boshqa binolar qurilgan.

IX—X asrlarda mamlakatda, bir tomondan, dehqonchilik, ikkinchi tomondan, hunarmandchilikning rivoj topishi, shubhasiz, o'z navbatida ichki va tashqi savdoning kengayishiga olib keladi. Bu davrda Old Osiyoni Mo'g'uliston va Xitoy bilan tutashtirgan qadimgi karvon yo'li orqali olib borilgan tashqi savdo aloqalari, ayniqsa* gavjumlashib ketadi. Bag'dod shahridan boshlangan katta karvon yo'li Hamadon, Nishopur, Marv, Omul, Buxoro, Samarqand, Shosh, Taroz, Qulon, Marke, Bolasog'un, Suyob, Issiqko'lning janubiy sohili orqali o'tib, Sharqiy Turkistonga va undan Xitoyga

kirib borar edi. Bu yo'ning Farg'ona orqali o'tgan janubiy, o'g'uzlar yoki Dashti Qipchoq orqali Janubiy Sibirga yo'nalgan shimoliy hamda Xorazm orqali Volga daryosi bo'ylab Xazar va Bulg'or davlatlariga eltadigan shimoli-g'arbiy tarmoqlari, ayniqsa, serqatnov bo'lgan. Karvonlarni suv va qo'noqlar bilan ta'minlab, uzoq va mashaqqatli yo'l azobini ma'lum darajada yengillashtirish uchun dashtlarda quduqlar qazilib, har bir bekatda rabotlar bino qilinadi. Karvonlar o'tadigan shahar va qishloqlarda karvonsaroylar quriladi. Ularda savdogarlaru sarbonlar va ularning hamroh xodimlariyu sayyohlar uchun hujralar, mollari uchun omborxonalar, tuyalar, otlar, xachirlar va eshak-lar uchun og'ilxonalar bo'lardi, ularda zarur yem xashaklar va oziq-ovqatlar saqlanardi. Karvonlar huzurida ko'pincha tarjimonlar xizmat qilardi. Yo'ldagi qaroqchilardan karvonni muhofaza qilish uchun ba'zan xatarli joylarda uni qurollangan harbiy askarlar qo'riqlab borardi. X asrda tashqi savdo muomalasida sarroflik cheklaridan keng foydalanilar edi. O'sha vaqtda savdogarlar o'zi bilan ko'p miqsorda pul olib yurmas edi. O'z pulini u shaharning inobatli sarroflaridan biriga topshirib, undan tegishdi hujjat — chek olardi. Mo'ljallangan shaharga borish bilan shu chekni sarrofga berib, unda ko'rsatilgan miqdordagi pulni to'laligicha qaytarib olishi mumkin edi. Hatto chek so'zining o'zi ham forscha ibora bo'lib, o'sha vaqtda ham bu so'z ayni shu ma'noda ishlatilar edi. IX—X asrlarda Somoniylar davlatining Sharqiy yevropa mamlakatlari bilan olib borgan karvon savdosida Volga daryosining o'rta oqimlarida joylashgan xazarlar va bulg'orlar bilan bo'lgan mol ayirboshlash katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu savdoda, ayniqsa, Xorazm muhim o'rin tutgan. Itil, Xazar va Bulg'orga Movarounnahr va Xorazmdan guruch, quruq meva (yong'oq, mayiz, o'rik va h.k.), kanakunjut moyi, shirinliklar, tuzlangan baliq, bo'za, mushk-anbar, paxta, ip va shoyi matolar, movut, kimxob, galam va buchoyshablar, qulf, kamon, qayiq va kumush tangalar, shuningdek, Xitoy, Hindiston, Eron, Kichik Osiyo va boshqa mamlakatlardan keltirilgan mollar chiqarilar edi.

Xulosa qilib aytganda, Somoniylar davrida savdo-sotiq eng muhim tarmoq hisoblangan. Aynan Savdo-sotiq sababli Somoniylar davlati ancha rivojlandi va ko'pgina o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Samarqand bu davrda, butkul o'zgacha qiyofaga kirdi, qo'shni davlatlar bilan aloqalari yanada mustahkamlanib bordi. Savdodagi muhim mahsulotlardan birgina Zarafshonning mush killingni oladigan bo'lsak, u o'zining xushbo'y hidi orqali Xitoy mushkini ortda qoldirgan va bu mahsulot savdosidan Zarafshon xalqi juda ko'p manfaatdor bo'lgan. Bu yerda eng ajablanarlisi shundaki, musulmonlarning savdo karvoni Mo'g'ulistonda juda katta izzat-ikrom bilan kutib olingan. Bundan bilsak bo'ladiki, mo'g'ul xalqi musulmonlar bilan savdo-sotiq qilishdan juda mamnun ekanligini. Xullas, Xalqaro savdo-sotiq ham madaniy, ham iqtisodiy jihatdan Somoniylar davlatini yuksaltirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.A.Hayitov.Buyuk ipak yo'li jahon svilizatsiyasi(o'quv uslubiy qo'llanma) Buxoro-2007.

2. A.Sh.Jumayev,S.Badriddinov. Buyuk ipak yo`li jahon svilizatsiyasi(o`quv uslubiy qo`llanma) Buxoro-2007. 27-b.

3. Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. -T.: Sharq, 2000, -98b.